| | | 3. Shartnoma asosida bajariladigan alohida ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini tijoratlashtirishga o‘tish. | 2025 yildan boshlab | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarilmoqda.**<br>O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika buyurtmasi asosida Institutda 2025 yilda bajariladigan ilmiy-tadqiqot dasturiga muvofiq yaratilayotgan o‘quv jarayonlarni raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish va monitoring qilishga mo‘ljalangan maxsus “Elektron platforma”da ilmiy-tadqiqotlarni tijoratlashtirish mexanizmi yaratilmoqda. |
| 12. | Institutda ilmiy-innovatsion faoliyat samaradorligini va ilmiy-tadqiqot ishlari sifatini oshirish. | 1. Institut professor-o‘qituvchilari, ilmiy xodimlari, doktorantlari va mustaqil izlanuvchilarining Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi fundamental, amaliy va innovatsion hamda startap tadqiqotlar loyihalari tanlovlarida faol ishtirok etishini ta’minlash va rag‘batlantirish orqali ilmiy tadqiqotlarni faollashtirish. | Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>O’zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligining Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi ilmiy loyihalar tanlovida ishtirok etish uchun 2ta amaliy loyihalar topshirilgan, ular:<br>- “Barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarning monitoringini yuritishda mavjud bo‘lmagan Milliy indikatorlarning texnologiyasini yaratish” mavzusida amaliy tadqiqot loyihasi. Mazkur loyiha barcha bosqichlardan muvoffaqiyatli o‘tgan va bugungi kunda Innovatsiya agentligining Kengashidan tasdiqlanish bosqichida;<br>- “O’zbekistonda innovatsion faol korxonalarni statistik usullarda baholash uslubiyotini yaratish” |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi. |
| | | 2. Professor-o‘qituvchilar va ilmiy xodimlarning ilmiy-tadqiqot yo‘nalishidagi samarali faoliyatini baholash va rag‘batlantirish tizimini joriy etish orqali Institutda ilmiy faoliyatni boshqarish va uning samaradorligi va natijadorligini oshirish. | 2025 yil<br>10 / 25 aprel | Sh.Shukurov,<br>A.Abduvaliyev,<br>Q.Xudoyqulov | **Bajarildi.**<br>Institut kengashining 2025 yil mart oyidagi 5-sonli qarori bilan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025- yil 24-fevraldagi 106-son qarorida belgilangan vazifalardan kelib chiqib institutda tasdiqlangan va yuritilayotgan “Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti xodimlari mehnatiga haq to‘lash, ustamalar, mukofotlar, qo‘shimcha to‘lovlar, rag‘batlantirish tarzidagi va boshqa to‘lovlar to‘g‘risidagi nizom”ga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi. |
| | | 3. Milliy statistika metodologiyasi va amaliyotining xalqaro tavsiyalarga mosligi, raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt, katta hajmdagi ma’lumotlar (Big data) bo‘yicha dolzarb mavzularda maqolalar, monografiya va ilmiy risolalar chop etish, doktorlik dissertatsiyasi ishlarini bajarish va natijalarini tizim amaliyotiga joriy qilish. | Yil davomida, 2025 yil<br>20 iyul /<br>10 dekabr | A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>Institutning professor-o‘qituvchilari, ilmiy xodimlari, doktorant va izlanuvchilarining dolzarb mavzularda nufuzli xorijiy va mahalliy ilmiy jurnallarda maqolalar, monografiya va ilmiy risolalar tayyorlashlari va chop etishlariga ko‘maklashish maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirildi:<br>1. 15.01.2025 y. Italiyaning “Statistic journal of IAOS” ilmiy jurnalining bosh muharriri, professor Piyetro Gennari tomonida on-layn vebinar tashkil etildi.<br>Vebinarda Institutning xodimlari, doktorantlari, tayanch doktorantlari, |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | mustaqil izlanuvchilari ishtirok etishdi va ilmiy jurnalida maqolalarini chop etishga tayorlash ko‘nikmalariga ega bo‘ldilar.<br>2. Institut Ilmiy kengashi yig‘ilishlarida quyidagi ilmiy nashrlarni chop etilishiga tavsiyalar berildi:<br>2.1. Ilmiy kengashining 2025-yil 13-yanvardagi 2-sonli qarori bilan:<br>- Z.Ziyayev, D.Tojiboyev va N.Nosirov muallifligida “STATA” amaliy-dasturiy paketi asosida katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish” o‘quv-uslibiy qo‘llanma;<br>- S.Qulmatova, M.Muxitdinova va B.Abdujalilova muallifligidagi “Big Data va ma’lumotlarni tahlil qilish muammolari” mavzusidagi monografiyani;<br>- B.K.G’oyibnazarov, B.E.To‘rayev, A.J.Siddiqov, Sh.R.Djumaniyazov, M.N.Sunnatov hammualifligidagi “Statistika asoslari” o‘quv qo‘llanmasi chop etishga tavsiya berildi.<br>2.2. Institut Ilmiy kengashining 2025-yil 30-yanvardagi 3-sonli qarori bilan M.H.Muxitdinova muallifligidagi “The effectiveness of artificial intelligence in statistical analysis of data stream” monografiyani chop etishga tavsiya etildi.<br>2.3. Institut Ilmiy kengashining 2025-yil 10-fevraldagi 4-sonli qarori bilan:<br>- B.K.G’ayibnazarov, B.E.To‘rayev, A.J.Siddiqov, Z.T.Yo‘ldoshev, M.N.Sunnatov, Sh.R.Djumaniyazov, |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | D.D.Yeshniyazov hammuallifligida tayyorlangan “Demografiya va mehnat statistikasi uslubiyoti va amaliyoti” nomli o‘quv qo‘llanmasi;<br>-A.A.Mamadjanov muallifligida tayyorlangan “O’zbekiston milliy hisoblar tizimida turizm yordamchi hisobini takomillashtirish” mavzusidagi monografiyasi chop etishga tavsiya etildi. |
| | | 4. Institutning xalqaro ilmiy nashrlar bazalariga (Web of Science, Springer Nature, EBSCO va boshqalar) ulanishiga va professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar, doktorantlarlarning ulardan faol foydalanishlariga ko‘maklashish. | Yil davomida, 2025 yil 20 iyul / 10 dekabr | A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>1. Institutda tashkil etilgan “Elektron statistika” xalqaro ilmiy nashrlar kutubxonasida xalqaro ilmiy-elektron nashrlardan “Znanium.ru” platformasidan foydalanish imkoniyati yaratildi.<br>“Znanium.ru” platformasidan 2025 yilning yanvar-mart oylarida (E-Line Press xatiga asosan 07.04.2025 y. №193/25-sonli) Institut va Statistika qo‘mitasi foydalanuvchilari tomonidan 166ta kitoblar, 93 xujjatlar va jami 4746 belik ma’lumotlar ko‘rilgan.<br>2. Institutning hamkori E-Line Press xatiga asosan 01.07.2025 yilda 98 mingdan ortiq xalqaro ilmiy nashrlar platformasini jamlagan EBSCO xalqaro platformasidan bepul foydalanish imkoniyati yaratiladi.<br>(E-Line Press xati 16.06.2025 y. №618/25-sonli) |
| | | 5. Institutda har yili statistika, iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarga doir dolzarb muammolarga bag‘ishlangan respublika va | Har yili, 2025 yil noyabr - dekabr | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>2025 yilning 20-22 avgust kunlari O’zbekiston Respublikasi Milliy |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarni tashkil etish. | | | statistika qo‘mitasi hamda Jahon bankining “O’zbekiston statistika tizimi salohiyatini mustahkamlash” loyihasi doirasida Institutda xalqaro darajadagi ekspert Stiven Vayli ishtirokida “Davlat organlari va tashkilotlarining statistik va ma’muriy ma’lumotlarni shakllantirishga mas’ul xodimlari uchun malaka oshirish kursi” tashkil etildi va o‘tkazildi.<br>Mazkur kursda vazirlik, tashkilotlarning statistkasiga mas’ul bo‘lgan xodimlari ishtirok etishdi. |
| 13. | O’zbekistonning ustuvor xalqaro reyting va indekslardagi ko‘rsatkichlarini yaxshilash, BRMlari global indikatorlari asosida tegishli milliy indikatorlarni takomillashtirish va ko‘rsatkichlar metodologiyasini ishlab chiqish hamda bu jarayonda ilmiy salohiyat va amaliy faoliyat uyg‘unligini ta’minlash. | 1. Vazirliklar, idoralar, davlat tashkilotlari hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan shartnomaga muvofiq ularning rasmiy statistikani tayyorlash, ma’muriy ma’lumotlar bilan ishlash va Ochiq ma’lumotlar portalida e’lon qilinadigan ma’lumotlarni shakllantirish bo‘yicha uslubiyatlarini baholash va xalqaro tavsiyalarga muvofiq takomillashtirish loyihalarini ishlab chiqish.<br><br>2. Milliy BRM indikatorlari uchun mas’ul davlat organlari bilan birgalikda tegishli indikatorlar bo‘yicha mavjud metodologiyani, shuningdek, ma’lumotlarni yig‘ish uchun maxsus kuzatuvlar o‘tkazish faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha alohida loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirilishini tashkil etish. | Har yili, 2025 yil 20 iyul / 20 oktabr<br><br>Har yili, 2025 yil 20 iyul / 20 oktabr | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev<br><br>Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarilmoqda.**<br>Ochiq ma’lumotlar portalida e’lon qilinadigan ma’lumotlarni shakllantirish bo‘yicha uslubiyatlarini baholash va xalqaro tavsiyalarga muvofiq o‘rganilmoqda va o‘rganishlar natijasida takomillashtirish takliflari ishlab chiqiladi.<br><br>**Bajarildi.**<br>O’zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligining Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi ilmiy loyihalar tanlovida ishtirok etish choralari ko‘rilmoqda, hususan:<br>1. “Iqtisodiyot va huquq fanlari” yo‘nalishida “Barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarning monitoringini yuritishda mavjud bo‘lmagan Milliy |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | . Ustuvor xalqaro reyting va indekslar hamda milliy BRM indikatorlari bo‘yicha statistika sohasiga tegishli dolzarb muammolarni o‘rganishga doir ilmiy-tadqiqot ishlari uchun belgilangan tartibda davlat buyurtmasini **shakllantirish** va har yili ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan e’lon qilingan tanlovlarda **ishtirok etish**. | Har yili, tanlov e’lon qilingan: sanadan 1 oy / sanaga qadar | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | indikatorlarning texnologiyasini yaratish” mavzusida AL-9124104751 shifridagi amaliy tadqiqot loyihasi tanlovda ishtirok etmoqda va bugungi kunda 4-chi bosqich (Yakuniy bosqich)dan o‘tmoqda.<br>2. O’zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligining 2025-yil 18-yanvardagi 01-07/201-sonli xatiga asosan, Institutda “O’zbekistonda innovatsion faol korxonalarni statistik usullarda baholash uslubiyotini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasini bajarish taklif etildi.<br>Loyihada O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 maydagi PQ-246-son qarorining 1-ilova 4-bandiga muvofiq “Biznes-korxonalar tomonidan tadqiqotlar va ishlab chiqarishlarga yalpi xarajatlarni oshirish” indikatorini hisoblash uslibiyotini yaratish vazifasiga bag‘ishlangan. |
| **V. Institut huzuridagi Oliy ta’limdan keyingi ta’lim instituti faoliyatining samaradorligini oshirish** | | | | | |
| 14. | Institut huzuridagi Oliy ta’limdan keyingi ta’lim instituti faoliyatini samarali tashkil etish, ilmiy kengashlar va dissertatsiyalar himoyalari tizimini xalqaro tajribaga muvofiqlashtirish. | 1. Institut huzuridagi 08.00.06-“Ekonometrika va statistika” va 08.00.14 – “Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari” ixtisosliklari bo‘yicha ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash faoliyatining samaradorligini oshirish. | Doimiy, 2025 yil 20 iyul / 20 oktabr | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev, S.G’ulomov, A.Siddikov | **Bajarildi.**<br>Institutning 2025-yil 14 martdagi 27-son buyrug‘i bilan 08.00.06 - “Ekonometrika va statistika” va 08.00.14 - “Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari” ixtisosliklari bo‘yicha ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash faoliyatining samaradorligini oshirish belgilandi.<br>Hususan, barcha dissertatsiya |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | ximoyalar internet tarmog‘i orqali jonli efirga uzatish tartibini yo‘lga qoyish belgilanga. |
| | | 2. Ilm-fan va amaliyotning integratsiyasiga erishish, milliy va xalqaro statistika metodologiyasi va amaliyotiga doir mavjud muammoli mavzularda ilmiy ishlarni bajarish va natijalarini amaliyotga joriy qilish. | Ilmiy ishlar natijasi bo‘yicha | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev, D.Zakirov | **Bajarildi.**<br>Institut direktorining 2025-yil 5-martdagi 7-sonli buyrug‘i bilan Institutning 1 va 2 – bosqich doktorant, tayanch doktorantlari, mustaqil izlanuvchilari hamda stajyor-tadqiqotchilarining ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish va ularning mutaxassislik bo‘yicha nazariy bilimlarini mustahkamlash maqsadida “Ekonometrika va statistika”, “Raqamli iqtisodiyot va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari” hamda “STATA amaliy - dasturiy paketi” bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari tashkil qilindi.<br>Izlanuvchilar dissertatsiya-larining yakuni bo‘yicha uning ilmiy yangiligi mavzu doirasidagi amaliyotga joriy qilinganlik to‘g‘risida tasdiqlovchi ma’lumotnomasi bo‘lishi talab etiladi.<br>Joriy yilning tahlil davrida, Institutning izlanuvchisi A.R.Valixonovning 08.00.06-“Ekonometrika va statistika” ixtisosligi bo‘yicha tayorlangan “O’zbekiston Respublikasida turizm sektorining iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini statistik tadqiqoti” mavzusidagi dissertatsiyaga O’zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm Qo‘mitasi tomonidan (24.02.2025 y. №03-10-17-1696-son) berilgan.<br>Shuningdek, izlanuvchilarning ilmiy yangiliklari O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan beriladigan Mualliflik Guvohnomalarini olishga ko‘maklashiladi. |
| | | 3. Tayanch doktorantura (PhD), doktorantura (DCs) va mustaqil izlanuvchilikda tahsil olayotgan ilmiy izlanuvchilar ilmiy faoliyati va dissertatsiya ishlari himoyasi bo‘yicha muntazam monitoring yuritish orqali 2025 yilda va kelgusida oliy ta’limdan keyingi ta’lim samaradorligini oshirish. | Har yili, har chorak yakunida | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi taolim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-sonli qaroriga muvofiq Institutda har chorak yakuni bo‘yicha hamda yil yakuniy bo‘yicha doktorant va mustaqil izlanuvchilar faoliyati monitoringi o‘tkaziladi.<br>Monitoring jarayonida erishilgan natijalar va mavjud muammolar o‘rganiladi va tahlil qilinadi. Izlanuvchilarning natijadorlik ko‘rsatkichlari asosida ularga ko‘maklashish choralari ko‘riladi va monitoringning natijalari Institut buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi. |
| | | 4. Doktorlik dissertatsiyalari mavzularini statistika metodologiyasi va amaliyoti, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni statistik va iqtisodiy tahlil qilish, ekonometrik modellashtirish va prognozlashtirish, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektga doir dolzarb mavzularda shakllantirish. | Har yili, 2025 yil 20 iyul / 20 oktabr | Sh.Shukurov A.Abduvaliyev, S.G’ulomov, A.Siddikov | **Bajarildi.**<br>Izlanuvchilarning tadqiqot mavzulari amaliyotda mavjud bo‘lgan dolzarb muammolarga yonaltirish uchun dissertatsiyalar uchun Ustuvor tadqiqot mavzular ro‘yxati ishlab chiqilgan va Statistika qo‘mitasi tomonidan |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | tasdiqlangan holda izlanuvchilarga taqdim etilgan.<br>Ustuvor tadqiqot mavzulari 08.00.06.-«Ekonometrika va statistika» hamda 08.00.14-«Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari» ixtisosliklari bo‘yicha tuzulgan.<br>2025 yil 1-choragida qabul qilingan mustaqil izlanuvchilarning dissertatsiya mavzulari Statistika qo‘mitasi bilan kelishish maqsadida yo‘llanma xat bilan taqdim etildi (2025-yil 12-mart 01/1-08-12-69-sonli). |
| 15. | Institut professor-o‘qituvchilari va ilmiy xodimlari, shuningdek, ilmiy izlanuvchilarga samarali ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish. | 1. Institutda doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarning samarali ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishlari uchun zarur sharoitlarni (jihozlangan xona, internetga ulangan kompyuter, printer va boshqalar) yaratib berish, shuningdek, aloqador oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari laboratoriyalaridan foydalanishda amaliy yordam ko‘rsatish. | Har yili, 2025 yil 20 iyul / 20 oktabr | Sh.Shukurov A.Abduvaliyev, Q.Xudoyqulov | **Bajarildi.**<br>O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi taolim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-sonli doirasida 08.00.06.-“Ekonometrika va statistika” hamda 08.00.14-“Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari” ixtisosliklarida tahsil olayotgan 1 va 2 kurs tayanch doktorantlar uchun Institutda amaliyot tizimi joriy qilindi.<br>Amaliyot O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasida 1 oy o‘tiladi. Doktorantlar agentlikning boshqarmalariga dissertatsiya mavzulari bo‘yicha biriktirilishadi, natijada dissertatsiyada yaratilgan ilmiy yangiliklarni amaliyotda tajriba-sinovdan o‘tkazish imkoniyati bo‘ladi. |
| | | 2. Institut professor-o‘qituvchilari va ilmiy xodimlari, shuningdek, ilmiy izlanuvchilarda xalqaro | 2025 yil mart | E.Ziyoyev, Sh.Shukurov | **Bajarildi.**<br>O’zbekiston Respublikasi Vazirlar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | ilmiy nashrlar bazalaridan erkin foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, ularga tadqiqot doirasida yuqori iqtibosli ilmiy nashrlarni kuzatib borish, nufuzli ilmiy jurnallarda ilmiy-tadqiqot natijalarini chop etish, tadqiqot yo‘nalishi bo‘yicha xalqaro darajadagi taniqli olimlarning ilmiy tadqiqotlari bilan bevosita tanishish imkoniyatini yaratish maqsadida Jahon bankining “O’zbekiston statistika tizimi salohiyatini mustahkamlash” loyihasini amalga oshirish uchun ajratilgan mablag‘lar hisobidan **“Xalqaro ilmiy nashrlar elektron kutubxonasi”**ni tashkil etish. | | A.Abduvaliyev | Mahkamasining 2024-yil 6-martdagi 113-son qarori hamda “O’zbekistonda statistika tizimi salohiyatini mustahkamlash” loyihasi mablag‘lari hisobiga Institutda “Elektron statistika” xalqaro ilmiy nashrlar kutubxonasi tashkil etildi va uning faoliyatini amalga oshirish uchun:<br>- Institutning 2025-yil 14 yanvardagi 5-sonli buyrug‘i bilan “Elektron statistika” xalqaro ilmiy nashrlar kutubxonasining asosiy faoliyatlari belgilandi;<br>- Institut Ilmiy kengashning 2025-yil 10 fevraldagi 4-son bayoni hamda Institutning 2025-yil 14-fevraldagi 19-son buyrug‘i bilan “Elektron statistika” xalqaro ilmiy nashrlar kutubxona Nizomi hamda 2025 yilda asosiy vazifalarini qamrab olgan Chora-tadbirlari tasdiqlangan.<br>26.02.2025 y. Jahon bankining mas’ul vakillari ishtirokida “Elektron statistika” xalqaro ilmiy nashrlar kutubxonasining ochilishi bo‘lib o‘tdi.<br>“Elektron statistika” xalqaro ilmiy nashrlar kutubxonasida so‘nggi yillardagi ilmiy kitoblar hamda elektron ilmiy resurslardan foydalanish sharoitlari yaratildi, jumladan, “Znanium.ru” platformasidan foydalanish imkoniyati yaratildi.<br>“Znanium.ru” resurslaridan 2025 yil davomida institut xodimlari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, stajyor tadqiqotchilar va o‘quv kurslari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 3. “Xalqaro ilmiy nashrlar elektron kutubxonasi” uchun xona ajratish, tegishli moddiy-texnika qimmatliklari bilan jihozlash, Internet tezligini oshirish, dasturiy ta’minot bilan ta’minlash. | 2025 yil mart | E.Ziyayev, Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev, Q.Xudoyqulov | tinglovchilari bepul foydalanish imkoniyatiga ega.<br><br>**Bajarildi.**<br>“Elektron statistika” xalqaro ilmiy nashrlar elektron kutubxonasi institutning 2-qavatidagi 209-xonada joylashtirildi va zarur mebel, koʻrgazmali materiallar va texnik vositalar va dasturiy ta’minot bilan ta’minlandi. |
| **VI. Institutning mahalliy va xalqaro hamkorligini kengaytirish** | | | | | |
| 16. | Institutning faoliyat yoʻnalishi boʻyicha mahalliy va xorijiy oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirish. | 1. Statistika agentligi tizimi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish, statistika metodologiyasi va amaliyotining dolzarb masalalarida statistik tadqiqotlarni amalga oshirish boʻyicha Institut faoliyatini takomillashtirish maqsadida:<br>ilgʻor mahalliy va xorijiy oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirish;<br>tuzilgan hamkorlik shartnomalari doirasida hamkor muassasalar oʻrtasida samarali tajriba almashishni yoʻlga qoʻyish va shu asosida institut faoliyatini takomillashtirib borish boʻyicha takliflar ishlab chiqish. | Har yili, 2025 yil 20 iyul / 20 oktabr | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev G.Umarova | **Bajarildi.**<br>Bugungi kunda Institutda 11 ta xorijiy 7ta mahalliy oliy taolim va ilmiy tadqiqot tashkilotlari bilan hamkorlik memorandumlari amalga oshirilmoqda. Hamkorliklarning amaliy natijadorligiga erishish maqsadida:<br>- Muddatlari oʻtgan memorandumlarni qayta rasmiylashtirish ishlari amalga oshirildi, ular, Qozogʻistonning ESIL Universiteti, Qozogʻiston Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi Akademiyasi hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti bilan memorandumlar yangi vazifalarni belgilagan holda qayta rasmiylashtirildi.<br>- 13.02.2025 y. Rossiyaning Ural Federal Universitetining (33.01-32/079-sonli taklif xatiga asosan) hamkorlik memorandumi doirasida |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | A.A.Abduvaliyev universitetning magistrlari uchun onlayin ilmiy-seminarda «Uzbekistan: tsifrovaya transformatsiya i ustoychivoye razvitiye» maorusa bilan ishtirok etdi. |
| | | 2. Koreya statistika boshqarmasining Statistika trening instituti va Statistik tadqiqotlar instituti bilan imzolangan uch tomonlama hamkorlik memorandumiga muvofiq Koreya tajribasi asosida:<br>Institut faoliyatini tubdan takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, amaliyotga joriy etishning aniq choralarini belgilash;<br>o‘quv dasturlarini yangilash, o‘quv jarayonlariga xorijiy ilmiy pedagoglarni (shu jumladan, videokonferensaloqa orqali) jalb qilish;<br>o‘quv jarayonlarini sifatli tashkil etish maqsadida onlayn malaka oshirish kurslari uchun elektron platforma yaratish va ishga tushirish;<br>qo‘shma tadqiqot loyihalarini amalga oshirish. | Hamkorlik memorandumi doirasida | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>1. Milliy statistika qo‘mitasiga 2025-yil 17 iyulda 01/2-01-12-179-sonli xat bilan Institutda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini Koreya malaka oshirish kurslarini o‘rganish asosida yangidan tashkil etiladigan kurslar bo‘yicha asoslantirilgan taklif tayyorlandi va kiritildi.<br>2. Qo‘shma tadqiqot loyihalarini amalga oshirish maqsadida onlain muloqot tashkil etish bo‘yicha xat bilan murojaat qilindi (2025 yil 10-apreldagi 01/1-08-12-113-sonli yo‘llanma xati). Bundan ko‘zlangan maqsad hamkorlikda bajariladigan ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlarini va mavzularini muhokama qilish. |
| | | 3. O’zaro hamkorlik shartnomalari doirasida:<br>Institutda xorijiy hamkorlar uchun malaka oshirish va stajirovka imkoniyatlarini taklif etish, xorijdan doktoranturada o‘qish, mustaqil izlanuvchi sifatida faoliyat ko‘rsatish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, malaka oshirish, stajirovkadan o‘tish mexanizmini yaratish;<br>xorijiy va mahalliy hamkor oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yangi o‘quv adabiyotlarini tayyorlash va mavjud resurslardan | Har yili, 2025 yil 20 iyul / 20 oktabr | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>Koreya statistika idorasi (KOSTAT) ko‘magida Koreya Hukumatining beg‘araz yordami dasturi (ODA) doirasida Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida Koreya statistika idorasi mutaxassislari ishtirokida O’zbekistonda treninglar tashkil etish rejalashtirilgan. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | foydalanish borasida hamkorlikni kuchaytirish;<br>malaka oshirish, stajirovka o‘tash, maxsus kurslarni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish;<br>xalqaro konferensiya, ilmiy-amaliy seminar, vebinar va davra suhbatlarini tashkil etish, ilmiy konferensiyalar to‘plamlarini indeksatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha shartlarni o‘rganib chiqish;<br>mavjud o‘quv, ilmiy, uslubiy resurslardan foydalanish. | | | **Rejaga muvofiq:**<br>1. Institutda xorijiy KOSTAT ishtirokida statistika fanlari bo‘yicha malaka oshirish kurslari KOSTATda (avgust oyida) va Institutda (oktabr oyida) tashkil etiladi. Bunda, KOSTATning o‘quv adabiyotlaridan hamda o‘quv, ilmiy, uslubiy resurslaridan foydalaniladi.<br>2. 2025 yil 24-iyuldagi Koreya statistika boshqarmasining rasmiy xatiga asosan 27 iyul-2 avgust kunlari Koreyaning ishchi guruhi tashrifi amalga oshirildi va ushbu yo‘nalishdagi masalalar muhokama qilindi.<br>***Loyiha asosi:*** *Koreya statistika idorasi taklifi (Koreya elchixonasining 2023 yil 26 maydagi KUZ-22-0285-sonli xati).* |
| | | 4. Institut faoliyatini rivojlantirish va budjetdan tashqari mablag‘lar tushumini ko‘paytirish maqsadida:<br>xalqaro tashkilotlar va jamg‘armalar bilan ham hamkorlikni kuchaytirish va shu orqali grant va beg‘araz yordam ko‘rinishidagi mablag‘larni jalb qilish;<br>professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar va doktorantlarning xorijiy grantlar tanlovlarida ishtirok etishini yo‘lga qo‘yish. | Har yili, 2025 yil 20 iyul / 20 oktabr | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>1. Koreya statistika idorasi (KOSTAT) ko‘magida Koreya Hukumatining beg‘araz yordami dasturi (ODA) doirasida Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida malaka oshirish tizimini moddiy-texnik qo‘llab quvvatlash rejalashtirilgan.<br>Amalga oshirilgan ishlar natijasida institutning 1ta o‘quv xonasi to‘liq ta’mirlandi, kompyuter va o‘quv faoliyatiga zaruriy uskuna va moddiy jihozlar bilan to‘liq ta’minlandi.<br>2025 yilning 27 noyabr kuni rasmiy |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | vakillar ishtirokida ushbu o'quv xonasining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.<br>***Loyiha asosi:*** *Koreya statistika idorasi taklifi (Koreya elchixonasining 2023 yil 26 maydagi KUZ-22-0285-sonli xati).* |
| **VII. Institutning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yo'nalishida** | | | | | |
| 17. | Institut va uning huzuridagi mehmonxona turidagi yotoqxonaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va samarali faoliyat yuritishini ta'minlash. | 1. Institut o'quv binosining majlislar zali va yotoqxona binosini kapital ta'mirlash, rekonstruksiya qilish va jihozlash. | Loyiha smeta hujjati va mablag' ajratishga qarab | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev, Sh.Xudoyarov, L.Yo'ldoshev | **Bajarildi.**<br>Institutning 26.08.2025 y. 50-son buyrug'iga asosan Insitutning asosiy moddiy-texnik vositalari xatlovdan o'tkazildi. Xatlov natijasida, o'quv faoliyatiga zaruriy moddiy-texnik vosita va jihozlar bo'yicha takliflar tayyorlandi. Xususan, institutning katta majlislar xonasida 35 kishiga mo'ljallangan kompyuter va internetdan foydalanadigan o'quv xonasi sharoitlarini yaratish (kompyuterlar, elektr simlari, internet simlar va bshq.) |
| | | 2. Institut faoliyatini transformatsiya qilish jarayonida uning tegishli moddiy-texnik vositalar (kompyuter va boshqa tashkiliy texnika, mebel va boshqalar) bilan jihozlanganlik holatini xatlovdan o'tkazish va qo'shimcha talab etiladigan texnik vositalar va jihozlar bo'yicha aniq ro'yxatni shakllantirish. | 2025 yil davomida | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev, Sh.Xudoyarov L.Yo'ldoshev | **Bajarildi.**<br>**1.** Institutning "Elektron statistika" xalqaro ilmiy nashrlar kutubxonasi Jahon bankining moliyaviy ko'magi asosida 200 ta ilmiy, badiy, motivatsion turdagi zamonaviy adabiyotlar xarid qilib berilgan.<br>Shuningdek, 2025 yil uchun "Znanium.ru" platformasidan foydalanish imkoniyati yaratilgan.<br>**2.** Alisher Navoyi nomidagi Milliy kutubxonaning 18.08.2024 y. xatiga asosan Institut uchun bepul tarzda |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | quyidagi ilmiy adabiyotlar resurslaridan foydalanish imkoniyati yaratildi: natlib.uz, media.natlib.uz, diss.natlib.uz, nodir.natlib.uz, press.natlib.uz, qr.natlib.uz.<br>**3.** Kutubxona fondini boyitish maqsadida beg'araz yordam tariqasida:<br>- Milliy statistika qo'mitasining axborot resurs markazidan 35 dona kitoblar (xat 21.02.2025 y. 01/1-08-12-9) olindi;<br>- O'zbekiston Yozuvchilar yushmasidan 30 dona badiiy kitoblar olindi (xat 21.02.2025 y. 01/4-03-12-50).<br>**4.** Institutning hamkori E-Line Press (Xat16.06.2025 y. №618/25-sonli) Institut uchun 01.07.2025 yilda 98 mingdan ortiq xalqaro ilmiy nashrlar platformasini jamlagan **EBSCO** xalqaro platformasidan bepul foydalanish imkoniyati yaratiladi. |
| | | 3. Institut Axborot-resurs markazini Institutning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan tegishli ravishda jihozlash, Milliy kutubxona, oliy ta'lim muassasalari ARMlari elektron bazasiga ulash, shuningdek, kitoblar, adabiyotlar, gazeta va jurnallar, statistika to'plamlari bilan ta'minlash. | Yil davomida, 20 iyul / 20 oktabr | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev, Sh.Xudoyarov L.Yo'ldoshev | **Bajarildi.**<br>Koreya statistika idorasi (KOSTAT) ko'magida Koreya Hukumatining beg'araz yordami dasturi (ODA) doirasida Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutining 107-o'quv xonasi to'liq qayta ta'mirlandi hamda mazkur xona yangi zamonaviy kompyuterlar va texnika vositalari bilan jihozlandi.<br>Shuningdek, mazkur o'quv xonasi kompyuterlari "STATA" tahliliy dasturiy paket bilan jihozlanadi. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 4. Institut auditoriyalarini zarur mebellar, o‘quv-laboratoriya uskunalari, videokonferensaloqa qurilmalari, proyektor va boshqa inventarlar, shuningdek, ko‘rgazma materiallar (soha bo‘yicha qonun, Prezident farmonlari, qarorlari, hukumat qarorlari, Statistika agentligi to‘g‘risida nizom, mamlakat makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va xalqaro reytinglardagi o‘rni va boshqalar) bilan jihozlash.<br><br>5. Institutda tarmoq statistikasi uslubiyoti va amaliyoti bo‘yicha malaka oshirish kurslarining amaliyot bo‘yicha mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun maxsus auditoriya tashkil etish, uni talab asosida jihozlash (statistika hisobotlari shakllari, ularni to‘ldirish bo‘yicha ko‘rsatmalar, uslubiy qo‘llanmalar, yeStat-4 dasturining ishlash sxemasi, statistika byulletenlari va to‘plamlar aks etgan stendlar va boshqalar). | 2025 yil davomida<br><br>2025 yil davomida | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev, Sh.Xudoyarov, L.Yo‘ldoshev<br><br>Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev, Sh.Xudoyarov, L.Yo‘ldoshev | |
| **VIII. Tizim xodimlarini kasbiy malaka, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha huquqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish** | | | | | |
| 18. | Tizim xodimlarining kasbiy malaka, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishning boshqa shakllari sifatida amaliy va ilmiy seminarlar, vebinarlar, trening va mahorat darslari, davra suhbatlari hamda amaliy faoliyatga doir test sinovlarini tashkil etishni yo‘lga qo‘yish. | 1. Xodimlarning faoliyat sohasi bo‘yicha kasbiy malaka, bilim va ko‘nikmalarini muntazam rivojlantirib borish maqsadida tarmoqlar va hududlar statistikasi uslubiyoti va amaliyoti hamda xalqaro standartlar bo‘yicha har chorakda vebinar shaklida mashg‘ulotlar tashkil etish, natijalari bo‘yicha amaliy faoliyatga doir test sinovlarini o‘tkazish.<br><br>2. Tizim xodimlarining kasbiy malaka, bilim va ko‘nikmalarini uzluksiz oshirib borish maqsadida Statistika agentligining tarmoq boshqarmalari va hamkor muassasalar bilan birgalikda Institutda milliy statistika metodologiyasi va amaliyoti, tarmoqlar statistikasi, xalqaro statistika, statistika amaliyotiga | 2025 yil davomida, oylik reja asosida<br><br>2025 yil davomida, alohida reja asosida | Z.Talipova, boshqarma boshliqlari<br><br>Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>Institutda 2025-yil yanvar-noyabr oylarida 6ta malaka oshirish kurslari bo‘yicha yakuniy test sinovlari o‘tkazilgan. Yakuniy test sinovlarda jami 342 ta tinglovchilar ishtirok etishgan, xususan:<br>- “Milliy hisoblar tizimi” o‘quv kursi – 11ta tinglovchilar, yakuniy testda o‘rtacha 80 ball;<br>- “Statistika (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” o‘quv kursi – 19 ta tinglovchilar, yakuniy testda o‘rtacha 71,7 ball; |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | raqamli texnologiyalarni qo‘llash, zamonaviy dasturiy paketlardan foydalanish masalalari bo‘yicha ilmiy va amaliy seminarlar, trening va mahorat darslari, davra suhbatlarini (an’anaviy, masofaviy va sayyor shakllarda) tashkil etish.<br><br>3. Tashkil etiladigan ilmiy va amaliy seminarlar, trening va mahorat darslari, davra suhbatlari samarasini oshirish maqsadida Statistika agentligining tarmoq statistika boshqarmalari rahbar va yetuk mutaxassislarini, soha bo‘yicha taniqli olimlar va amaliyotchilarni taklif etish. | 2025 yil davomida, tadbir dasturi asosida | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | - “Statistika uslubiyoti va amaliyoti” o‘quv kursi – 178 ta tinglovchilar, yakuniy testda o‘rtacha 72,4 ball;<br>- “Uy xo‘jaliklari tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish” o‘quv kursi – 88 ta tinglovchilar, yakuniy testda o‘rtacha 69,5 ball;<br>- “Raqamli iqtisodiyotda katta hajmdagi ma’lumotlar (Big data) va sun’iy intellekt” o‘quv kursi – 25 ta tinglovchilar, yakuniy testda o‘rtacha 80,8 ball;<br>- “STATA” amaliy-dasturiy paketi asosida katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish o‘quv kursi – 49 ta tinglovchilar, yakuniy testda o‘rtacha 89,4 ball<br>- “Tadbirkorlik statistikasi uslubiyoti va amaliyoti” o‘quv kursi – 12 ta tinglovchilar, yakuniy testda o‘rtacha 74,5 ball;<br>- “Investitsiyalar va qurilish statistikasi uslubiyoti va amaliyoti” o‘quv kursi – 15 ta tinglovchilar, yakuniy testda o‘rtacha 78,9 ball; |
| 19. | Institutda korrupsiya va uni yuzaga keltiruvchi omillarning oldini olish, tizim xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha huquqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish. | 1. Institutda korrupsiyaning oldini olish maqsadida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va aniqlangan xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli choralarni belgilash va amalga oshirish. | Har yili, 2025 yil 20 iyul / 20 oktabr | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev, T.Tuxtasinov | **Bajarildi**<br>2025-yilning 2-iyul kuni Institut jamoasi hamda doktorant va izlanuvchilari uchun, korrupsiya elati, diniy ekstremizm, onlayn firibgarlik mavzulariga bag‘ishlangan **“Ogohlik davr talabi”** mavzusida davra suhbati ztkazildi.<br>Davra suhbatini Institutning Bosh yurist konsulti, 2-darajali Adliya |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | maslahatchisi T.To‘xtasinov tomonidan olib borildi. |
| | | 2. Statistika agentligi tizimi xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy bilim va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida, alohida malaka oshirish kurslari o‘quv rejasi va dasturiga korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amaldagi qonunchilik va chora-tadbirlarga doir dars soatlarini kiritish. | 2025 yildan boshlab, o‘quv kursi tashkil etilishiga qarab | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev, T.Tuxtasinov | **Bajarildi**.<br>“Statistika (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) “ (576 soat) qayta tayyorlash kursida 2025 yil o‘quv rejaga umumiy tayyorgarlik bo‘limiga “Davlat statistika organlari xodimlari faoliyatini tartibga solishning qonunchilik me’yorlari” 2 soatlik dars kiritilgan.<br>Bundan tashqari institutda tashkil etilgan yanvar-iyul oylarida malaka oshirish kurslarida 2025-yil 25-aprel kuni O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta’minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-147-son Qarori va 13-iyunda “Korrupsiya illati inson huquq va erkinlari kafolatlarini izdan chiqaradi, jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni yuzaga keltiradi” mavzulari yuzasidan targ‘ibot va tushuntirish tadbirlari olib borildi. |